

**DANTE ALIGYERINING “ILOHIY KOMEDIYA” VA ABDULLA
ORIPOVNING “JANNATGA YO‘L” ASARLARINING MUSHTARAK VA
O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Qodirova Xurshida

*Urganch Ranch texnologiya universiteti
Pedagogika va filologiya fakulteti 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: Dante Aligyerining “Ilohiy komediya” va Abdulla Oripovning “Jannatga yo‘l” asarlari inson ma’naviyati , axloqiy poklanish va abadiy hayot yo‘lidagi sinovlarni o‘z ichiga olgan muhim adabiy yodgorliklardir. Ushbu maqolada ikki asarning mushtarak va o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: diniy-falsafiy mavzu , axloqiy poklanish , ramziy sayohat , badiiy timsollar , poetik uslub , allegoriya , ijtimoiy muammolar , ma’naviy o‘sish.

Аннотация: “Илохий комедия” Данте Алигьери и “Жаннатга йол” Абдуллы Орипова — важные литературные памятники , включающие в себя духовность человека , нравственное очищение , испытания на пути к вечной жизни. В данной статье анализируются общие и уникальные аспекты двух произведений.

Ключевые слова: религиозно-философская тема , нравственное очищение , символическое путешествие , художественные символы , поэтический стиль , аллегория , социальные проблемы , духовный рост.

Abstract: Dante Alighieri's “Ilohiy komediya” and Abdulla Oripov's “Jannatga yo‘l” are important literary monuments that include human spirituality , moral purification , and trials on the way to eternal life. This article analyzes the common and unique aspects of the two works.

Key words: religious-philosophical theme , moral purification , symbolic journey , artistic symbols , poetic style , allegory , social problems , spiritual growth.

“Ilohiy komediya” XIV asrda , O‘rta asr Yevropa ijtimoiy-siyosiy inqirozi davrida yozilgan bo‘lsa , “Jannatga yo‘l” XX asr oxirlarida , Sovet tuzumining yemirilishi va yangi mafkuraviy yo‘nalishlar shakllanishi fonida yaratilgan. Shu sababli , asarlardagi ijtimoiy ishora va allegoriyalar turlicha talqin etiladi.

“Ilohiy komediya” o‘rta asr italyan adabiyotining uchlik misralar shaklida yozilgan bo‘lib , aniq poetik tizimga ega. “Jannatga yo‘l” esa o‘zbek adabiyotining lirika an’analari asosida yozilgan bo‘lib , murakkab badiiy ifodalar va milliy ruh bilan sug‘orilgan.

Har ikkala asar ham diniy-falsafiy mazmunga ega bo‘lib , insonning gunoh va

savob, do‘zax va jannat yo‘lidagi ruhiy kechinmalarini aks ettiradi. Har ikkala asarda ham bosh qahramon o‘zining izlanishlari jarayonida turli sinovlardan o‘tadi.

Dante do‘zaxni inson gunohlari bilan bog‘liq turli bosqichlarga ajratgan bo‘lsa, Abdulla Oripov dostoni ham jannat va do‘zax orasidagi ruhiy tafovutni, insoniy qadriyatlar orqali ta’riflaydi. Ikkala asarda ham jannat ezgulik va poklik timsoli bo‘lsa, do‘zax yovuzlikning natijasi sifatida tasvirlanadi.

Dante yo‘l boshlovchi sifatida Vergiliy va Beatricheni tasvirlasa, Abdulla Oripovning qahramoni ham o‘ziga yo‘l ko‘rsatuvchi ruhiy murabbiy obrazlari bilan uchtrashadi. Bu jihat ikki asarning ruhiy sayr xarakteriga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Abdulla Oripovning “Jannatga yo‘l” dostonining yakuniy qismiga tegishli parchani tahlil qilsak.

1. Asarning kulminatsion nuqtasi.

Asarda yigit va do‘st o‘rtasidagi bahs hal qiluvchi bosqichga yetadi. Do‘st o‘z

fikrida qat’iy turib, yigitga ikki tanga (ikki paysa) olishi shartligini ta’kidlaydi, bu esa ular o‘rtasidagi sadoqat va do‘stlik sinovining eng yuqori nuqtasiga olib keladi.

“Sen olasan! Sen olasan! Oxirgi so‘zim!”

Ushbu jumla do‘stning qat’iy fikrini ifodalaydi va asardagi fojiali keskinlikni oshiradi. Yigit esa unga javoban rad javobini beradi, bu esa uning halolligi, sadoqati va do‘stlikka bo‘lgan sadoqatini ko‘rsatadi.

2. Asarning yechimi va xulosasi

Bu bo‘limda ilohiy sado eshitiladi. Ushbu sado asarda muhim ramziy ahamiyat kasb etadi va qahramonlarning sinov natijasini tasdiqlaydi:

“Ikki do‘stning sadoqati, mehri, xizmati, Koinotning qadri ham turadir baland.”

Bu misralarda sadoqat va do‘stlikning ilohiy qadriyatlarga tenglashtirilishi kuzatiladi. Demak, insoniy fazilatlar — sadoqat, fidoyilik va halollik — najotning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

3. Jannatga yetishish konsepsiysi

Asarda jannat insonning yurish-turishi, axloqiy pokligi bilan bog‘lanadi. Asosiy g‘oya shundaki, jannat nafaqat u dunyoda, balki bu dunyoda ham mavjud va uni yaratish insonning o‘z qo‘lida. Shu bois:

“Jannat ato qilajakman ikkizingizga ham! Jannat yo‘li mana sizga ochiq, charog‘on.”

Bu satrlar Dante Aligyerining “Ilohiy komediya” dostonidagi yakuniy manzara bilan bog‘liq bo‘lib, Dante jannatga yetib borib, ilohiy haqiqatni ko‘rgani kabi, Abdulla Oripov qahramonlari ham ruhiy poklanish natijasida jannatga yetishadilar.

- Ramziy timsollar:
- Do‘st va yigit – insoniy fazilatlarning sinovdan o‘tishi timsoli.

- Ikki paysa – dunyoviy manfaat va halollik o‘rtasidagi ziddiyat.
- Ilohiy sado – haqiqatni anglash va adolatning qaror topishi ramzi.
- She’riy san’atlar:
- Takrorlar (“Sen olasan! Sen olasan!”) – qahramonning his-tuyg‘ularini kuchaytirish uchun ishlatilgan.
 - Antiteza (qarama-qarshilik) – dunyoviy manfaat va ma’naviy yuksalish o‘rtasidagi kurash ko‘rsatilgan.

Abdulla Oripovning “Jannatga yo‘l” dostoni insonning ruhiy kamolot sari yo‘lini tasvirlaydi. Asarning kulminatsion qismida do‘stlik , sadoqat va halollik sinovdan o‘tadi. Dante “Ilohiy komediya” asarida jannatga yetishish uchun axloqiy poklanish zarurligini ko‘rsatgan bo‘lsa , Oripov ham insoniy fazilatlarni jannat sari

yo‘l sifatida talqin qiladi. Dostonning badiiy tili , falsafiy yuki va ramziy ma’nolari uni o‘zbek adabiyotining yuksak namunalaridan biriga aylantiradi.

Ikki muallifning asarlaridagi o‘ziga xos jihatlarni solishtirib ko‘rsak:

1. Adabiy shakl va uslub
 - Dante asarini tertsina (uchlik qofiya tizimi) janrida yozgan va uni uch qismiga ajratgan: “Do‘zax”, “A’rof” va “Jannat”.
 - Abdulla Oripov esa dostonda o‘zbek she’riyati an’analariga tayangan , badiiy tasvirlar orqali o‘z falsafasini ifodalagan.
2. Falsafiy asoslar
 - Dantening asari xristian dini asoslariga tayanadi , bunda katolik axloqiy tizimi ko‘zga tashlanadi.
 - Abdulla Oripovning asari esa islomiy tasavvuf g‘oyalari , sharqona falsafa va insoniy kamolotga yo‘naltirilgan.
3. Qahramonning yo‘li va maqsadi
 - Dantening sayohati gunohdan poklanish va ilohiy haqiqatni anglashga qaratilgan.
 - Abdulla Oripovning asarida qahramon ichki iztiroblar , iymon va ezgulik sari yo‘nalgan.
4. Badiiy obrazlar va ramziy ma’no
 - Dantening do‘zaxi qat’iy tartib asosida tasvirlangan , gunohlarga yarasha jazolar beriladi.
 - Abdulla Oripov asarida esa ramziy obrazlar ko‘proq bo‘lib , do‘st , odamiylik , insof va vijdon kabi tushunchalar she’riy tilda ifodalanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki , Dante Aligyerining “Ilohiy komediya” va Abdulla Oripovning “Jannatga yo‘l” asarlari inson ruhiyatining oliy haqiqat sari yo‘lini tasvirlovchi muhim adabiy yodgorliklardir. Ularning mushtarak jihatlari falsafiy , axloqiy va diniy izlanishlar bilan bog‘liq bo‘lsa , o‘ziga xos farqlari ularning madaniy

, tarixiy va adabiy asoslaridan kelib chiqadi. Har ikkala asar ham inson ma’naviy o’sishining adabiy timsoli sifatida ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dante A. Ilohiy komediya. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent.,2001
2. Oripov A. Jannatga yo‘l. Toshkent., 1980
3. Oripov A. Tanlangan asarlar. 3-jild.Toshkent.,2001
4. Qo‘shtonov M., Suvon M., Abdulla Oripov. Toshkent: “Ma’naviyat”, 2000